



ZAMAXSHARIYNING “AL-KASHSHOF” VA “NUKATU-L-E’ROB”
ASARLARINING QIYOSIY TAHLILI

Abzalova Farida

*O‘zbekistom xalqaro islom akademiyasi
“Islom tarixi va manbashunosligi IRCICA”
kafedrası 2-kurs tayanch doktoranti
faridaabzalova96@gmail.ru
+998999936571*

Annotatsiya. Mazkur maqolada Mahmud Zamaxshariyning nodir asarlari bo‘lmish “Al-Kashshof” va “Nukatu-l-e’rob” haqida ma’lumot berilib bu ikki asarning o‘xshash va farqli jihatlari tahlil qilinadi. Bu asarlar ilm-fanning qanday sohalarni qamrab olganligini ochib berishga e’tibor qaratiladi. Shuningdek, muallif allomaning hayoti va faoliyati haqida ham qisqacha bayon qiladi.

Kalit so‘zlar. Kashshof, nukta, nukat, “Faxru-l-Xorazm”, “Ustozu-l-arab va ajam”, e’rob

СРАВНИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ ПРОИЗВЕДЕНИЙ ЗАМАХШАРИ «АЛ-КАШШОФ» И «НУКАТУ-Л-ЭЪРАБ»

Аннотация. В данной статье представлена информация о редких произведениях Махмуда Замахшари «Аль-Кашшоф» и «Нукату-л-эъраб», а также анализируются сходства и различия между этими двумя произведениями. Эти работы направлены на раскрытие того, какие области охватывает наука. Автор также кратко описывает жизнь и деятельность ученого.

Ключевые слова. Кашшоф, нукта, нукат, «Фахру-л-Хорезм», «Устозу-л-араб ва аджам», эъроб

COMPARATIVE ANALYSIS OF ZAMAKHSHARI’S WORKS “AL-KASHSHAF” AND “NUKATU-L-E’RAB”

Annotation. This article provides information about Mahmud Zamakhshari's rare works, “Al-Kashshof” and “Nukatu-l-e’rab”, and analyzes the similarities and differences between these two works. The focus is on revealing what areas of science these works cover. The author also briefly describes the life and work of the scholar.

Keywords. Kashshof, nukta, nukat, “Fakhru-l-Khorezm”, “Ustozu-l-Arab va ajam”, e’rob.

KIRISH (ВВЕДЕНИЕ / INTRADUCTION)

Dunyo yaralibdiki, qaysi asr, qaysi zamon bo‘lmasin, unda ilm-fan va ilm ahliga alohida ehtirom ko‘rsatiladi. Davlatimiz o‘z erkini qo‘lga kiritgan kunidan to shu kunimizga qadar ilm-fan va uning rivojiga hissa qo‘shgan buyuk ajdodlarimizni boy ilmiy merosini o‘rganib hayotga tatbiq etishga katta e‘tibor qaratib kelmoqda. Albatta buyuk ajdodlarimizning nodir asarlarini o‘rganar ekanmiz, ularning nafaqat ilm-fan, balki islom dini rivoji va diniy qadriyatlar shakllanishida muhim rol o‘ynaganlarini guvohi bo‘lamiz.

Dunyoviy davlatda diniy qadriyatlar ham muhim o‘rin tutadi. Diniy qadriyatlar O‘zbekiston xalqining madaniyati, turmush tarzi, urf-odatlar, odob-axloqining shakllanishiga hamda ularning avloddan avlodga meros bo‘lib o‘tishiga xizmat qilib kelmoqda [1:1].

Diniy qadriyatlar shakllanishi va ularning avloddan avlodga meros bo‘lib o‘tishida beqiyos o‘ringa ega bo‘lgan bobolarimizdan biri Abulqosim Mahmud ibn Umar ibn Ahmad Zamaxshariy desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Alloma ko‘hna Xorazm zaminidan yetishib chiqib, jahon fani va madaniyati rivojiga o‘zining munosib va salmoqli hissasini qo‘shgan buyuk olimlardan biridir.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METOD (ЛИТЕРАТУРА И МЕТОД / MATERIALS AND METHODS) Zamaxshariy ilm-fanning turli sohalarida ijod etib ularning rivojiga munosib hissasini qo‘shgani uchun ham uning asarlari turli davrlarda ko‘plab tadqiqotchilar tomonidan o‘rganilib kelingan. Mahmud Zamaxshariy merosi asrlar davomida G‘arb va Sharq olimlari tomonidan tadqiq etilgan. Nemis olimlari K.Brokelman, S.Shmidtke, ingliz tadqiqotchilari Ch.Xorn, R.Jekson, Ozar olimi Z.M.Buniyatov, rus olimi S.M.Prozorov, tatar olimlari B.Z. Xolidov va A.B.Xolidovlar o‘z tadqiqotlarida Zamaxshariy ijodi va merosi haqidagi ma‘lumotlarni taqdim etganlar.

Sharqda Sam‘oniy, Yoqut Hamaviy, Ibn Xallikon, Ibn Qutlug‘beka, Suyutiy, Feruzobodiy, Taftazoniy, Toshko‘prizoda, Hoji Xalifa, Abdulhay Laknaviy kabi muarrixlar Zamaxshariy hayoti va merosiga taalluqli ma‘lumotlarni qayd etganlar. Ahmad Muhammad Xufiy, Fozil Solih Somroi, Mustafo Soviy Juvayniy, Bahiyja Boqir Hasaniy, Zohira Tavfiq Abu Keshk, Kamol Jabriy Abhariy kabi olimlar Zamaxshariy asarlari bo‘yicha tadqiqot olib borganlar.

MUHOKAMA (ОБСУЖДЕНИЕ / DISCUSSION)

Mahmud Zamaxshariy 467 yil 27-rajab, chorshanba kuni, milodiy 1075 yilning 18 mart kuni Xorazmning Zamaxshar qishlog‘ida tug‘ildi [2:3].

Zamaxshariy dastlabki savodini o‘z yurtida chiqargan bo‘lsa ham, umri davomida ilm talabida juda ko‘p shaharlarga safar qildi. Zamonasining mashhur olimlaridan saboq oldi. Bir emas balki bir necha ilm sohalarida peshqadam olimga aylanib “Faxru-l-Xorazm” nomiga sazovor bo‘ldi [3:14].

Olimning fanning turli sohalarida sermahsul ijodi uni haqiqatdan ham “Ustozu-l-arab va ajam” laqabiga munosib ekanligini ko‘rsatadi. Zamaxshariy 70 dan ortiq asar yozgan bo‘lib, ularning barchasi ham bizgacha yetib kelmagan. Ushbu maqolada olimning mashhur asari

bo‘lmish “Al-Kashshof” bilan “Nukatu-l-e‘rob” asarlarining o‘xshash va farqli jihatlari tahlil qilinadi.

Mahmud Zamaxshariyning islom dunyosida qisqacha “Al-Kashshof” nomi bilan mashhur bo‘lgan “Al-Kashshof an-haqoiqi-t-tanzil va uyuni-l-aqovil fi vujuhi-t-ta’vil” “Qur’onning berk haqiqatlarini va uni sharhlash orqali rivoyatlar ko‘zlarini ochgich” nomli tafsiri olim ilmiy merosining gultoji hisoblanadi. Ushbu asar islom dunyosida o‘zining ilmiy ahamiyati bilan umume’tirof etilgan filologik tafsir sifatida baholangan.

Manbalardagi ma’lumotlarga qaraganda alloma bu nodir asarini ikki bosqichda yozadi. Dastlab yigitlik yillarida Arabistonga haj ziyorati uchun borganida Qur’oni karimning “Baqara” surasini sharhlay boshlaydi va uni Makka amiriga taqdim etadi. Mahmud Zamaxshariy tafsir ilmiga qo‘yilgan barcha talablarni mukammal o‘zlashtirgandan so‘nggina tafsir ishini davom ettiradi va uni Makkaga ikkinchi marta qilgan safari mobaynida, ya’ni 1130-1134 yillar orasida muvaffaqiyatli yakunlaydi [4:1].

“Al-Kashshof” asari tafsir bo‘yicha nihoyatda ahamiyatli asar hisoblanib, hozirgi kungacha “Al-azhar” universitetida o‘qitilib kelinmoqda. Asarda oyatlarning balog‘at, fasohat jihatidan asl ma’nolari keng qamrovda ochib berilishi muallifning chuqur bilimi va mantiqiy mushohadasidan darak beradi. Bu asarning nodir qo‘lyozmalari dunyoning ko‘plab kutubxonalarida mavjud va bugungi kunga qadar ular ustida bir qator tadqiqotchilar talaygina ilmiy tadqiqotlar olib borganlar.

Allomaning arab grammatikasining nozik jihatlarini ochib beruvchi asarlaridan yana biri “Nukatu-l-e‘rob fi g‘aribi e‘rob fi-l-Qur’oni Karim” nomli asari bo‘lib, unda Qur’oni Karimning ayrim oyatlarining nozik jihatlarini ochish orqali o‘quvchiga grammatik mavzular bayon qilinadi. Mazkur asar qo‘lyozma holatda bo‘lib, Zamaxshariy uni “Nukatu-l-e‘rob fi g‘aribi-l-e‘rob” nomi bilan atagan. Tarjima va tabaqot olimlarining ba’zilar o‘zlarining kitoblarida bu nomga “Fi-l-Qur’oni-l-karim” iborasini qo‘shganlar.

“Nukat” “Nukta” so‘zning ko‘plik shakli bo‘lib lug‘atlarda kelganidek, oq narsadagi har bir qora nuqta yoki qora nasadagi har bir oq nuqtadir [5:32].

Nukta (نکۃ / نکت) so‘zi bir necha ma’nolarda kelgan bo‘lib “yashirin alomat”, “nafsga ta’sir qiluvchi latif fikr”, “puxta o‘ylash natijasida anglangan masala” kabilarni anglatadi.

Umuman “nukta” biror “bir narsaning nozik jihati” degan ma’noni anglatib, Zamaxshariy bu asarda Qur’oni karimdagi ayrim suralarning o‘ziga xos nozik jihatlarini ochib bergan.

Asarning qo‘lyozmasi yagona nusxada bo‘lib, bu haqida Brokelman o‘zining “Tarixu-l-adabi-l-a’robiy” kitobida ma’lumot beradi. Mazkur qo‘lyozma Qohiradagi “Doru-l-kutubu-l-vasoiqi-l-qavmiyya” kutubxonasining qo‘lyozmalar fondida 898 raqami ostida tafsir bo‘limida saqlanadi. 64 varoq 128 sahifadan iborat.

Asardagi 68 ta sura tahlili bo‘limlar soni ham 68 ta ekanligini anglatadi. Bundan ma’lum bo‘ladiki, Zamaxshariy 64 ta sura haqida biror ma’lumot keltirmagan. Bu narsa alloma bu asarda tafsir yozishni emas, balki Qur’oni karimning ayrim suralarining nozik jihatlarini ochib

berishni maqsad qilganligini anglatadi. Demak, uning asosiy maqsadi Qur’oni karimdagi nuqtalarga boy oyatlarni tahlil qilish bo‘lgan. Olim tanlab olgan nuqtalar soni 500 ga yetadi.

Nukatu-l-e’rob tafsir yoki Qur’on e’robiga bag‘ishlangan kitob emas balki, Zamaxshariy o‘zi aytganidek, nuqtalar va nodir masalalarga bag‘ishlangan asar desak xato bo‘lmaydi. Unda suralarning grammatik jihatdan nozik jihatlari, ulardagi lug‘ot, sarf, balog‘atga oid masalalar ochib berilgan. Ayrim ehtiyoj sezilgan o‘rinlarda fiqhiy va tafsiriy masalalar bayon qilingan. Masalan, Baqara surasidagi 286 ta oyatdan 22 ta nuqta, Oli Imron surasidagi 200 ta oyatdan 20 nuqta, Moida surasining 176 ta oyatidan 35 nuqta, Hashr surasining 99 ta oyatidan 4 tagina nuqtasi tanlab olingan. Bunday uslubda suralardagi ma’lum nuqtalargina tanlab olinishi asarni tafsirga bag‘ishlangan asar emasligini yana bir bor isbotlaydi.

Zamaxshariyning bu ikki muhim asarlarini tadqiq qilinsa, bu ikki kitob bir-birini to‘ldirishini ko‘rish mumkin. “Nukatu-l-e’rob” asarida Zamaxshariy odatiga xilof ravishda kitobga muqaddima yozmagan. Ehtimol qo‘lyozmadan kitobning muqaddima qismi yo‘qolgan bo‘lishi mumkin. Boshqa tahminga ko‘ra, mazkur asar “Al-Kashshof”ning muqaddimasi yoki muxtasari bo‘lgani uchun muallif bu asariga muqaddima yozmagan.

Birinchi ehtimolga ko‘ra, alloma dastlab “Nukatu-l-e’rob” asarini yozgan. Asarni o‘rganishga bo‘lgan qiziqishlarini e’tiborga olib, umrining oxirlarida 60 yoshlarida bu kitobni kengaytirishga va tafsir sohasida qarashlarini qo‘shishga qaror qiladi. “Nukat-l-e’rob” asarining zamirida fiqhiy, nahviy va sarfiy masalalariga e’tibor qaratgan holda “Al-Kashshof” asarini ta’lif etgan.

Ikkinchi ehtimolga ko‘ra, Zamaxshariy birinchi “Al-Kashshof”ni ta’lif etib, so‘ng talabalarga yengillik bo‘lishi uchun asarni muxtasar holga keltirib “Nukatu-l-e’rob” kitobini yozgan. Bu hol Zamaxshariy uchun yangilik emas. Chunki, “Unmuzaj” “Mufasssal” asarining muxtasari hisoblanadi. Birinchi ehtimol haqiqatga yaqin bo‘lib, Jaru-l-loh dastlab “Nukatu-l-e’rob”ni yozgan. So‘ng hayotining oxirgi yillarida Makka, Bag‘dod va Xorazmga rihlatlari orasida “Al-Kashshof”ni yozib tugatgan.

Dok. Kamol Jabriy Abhariy o‘zining “Zamaxshariyning tarjimai holi, asarlari va grammatik yo‘nalishi” nomli asarida “Nukatu-l-e’rob” asari “Al-Kashshof”dagi masalalarning majmuasi deb aytib o‘tadi[6:113-114].

Al-Kashshof” va “Nukatu-l-e’rob” asarlarini o‘xshash va farqli jihatlari quyidagilarda ko‘rish mumkin:

1. Bu ikki asar arab tili qoidalariga asoslanib, balog‘at va nahv (sintaksis) jihatidan tahlilga tayanadi;

2. Har ikkalasi ham Qur’on bilan bog‘liq bo‘lib, “Al-Kashshof” tafsir bo‘lgani uchun unda barcha oyatlar keng qamrovda tahlil qilinsa, “Nukatu-l-e’rob”da ba’zi oyatlar tanlab olinib grammatik tahlil qilinadi;

3. Ikkala asarda ham mo‘taziliy falsafiy tahlil usullari sezilisada ilmiy dalillar va mantiqiy asoslash kuchli;

4. “Al-Kashshof” tafsir ilmidagi muhim asarlardan biri bo‘lsa, “Nukatu-l-e’rob” nahv va Qur’on sintaksisi bo‘yicha nodir asarlardan hisoblanadi. “Al-Kashshof”ning asosiy mavzusi Qur’on tafsiri va balog‘ati desak, “Nukatu-l-e’rob”ning mavzusi esa Qur’on oyatlarining grammatik tahlili. “Al-Kashshof”ning yo‘nalishi tafsir, ilohiyot bo‘lsa, “Nukatu-l-erob”niki nahv (sintaksis) va e’rob (grammatik tuzilma). “Al-Kashshof”ning uslubi Qur’on oyatlarining ma’nosini ochib berish va tahlil qilishdan iborat. “Nukatu-l-e’rob”ning uslubi Qur’ondagi so‘z va jumalarning grammatik tuzilishini o‘rgatish.

Zamaxshariy o‘zining tafsir kitoblarini mo‘taziliy firqasining aqidasi, xususan beshta asosiga muvofiq bayon qilgan. Ular: tavhid, adl, va’d va va’iyd, ikki manzila o‘rtasidagi manzila hamda amri ma’ruf va nahyi munkardir. “Al-Kashshof” tafsirini o‘quvchi undagi mo‘taziliy fikrlarga chalg‘ib qolmasligi uchun hoshiyasida ikkita kitob bilan birga chop etilishi odatga aylangan.

Ular: Ibnul Munir al-Iskandariyning *الانتصاف فيما تضمنه الكشاف من الاعتزال* “Al-Intisof fima tazommanahu al-Kashshof minal i’tizol” (Al-Kashshof tafsiri o‘z ichiga olgan mo‘taziliy fikrlarga nisbatan insof nazari bilan boqish) kitobi va Ibn Hajar al-Asqaloniyni *الكافي الشاف* “Al-Kof Ash-Shof fi taxriji ahodis al-Kashshof” (Al-Kashshof tafsiridagi hadislarni taxrij qilishga kifoya qiluvchi) kitobidir.

Tafsirning o‘ziga xos jihati shundan iboratki, unda har bir oyat to‘laligicha tafsir qilinmaydi, balki faqat tafsir qilinishga muhtoj bo‘lgan kalimalarga ma’no yoziladi.

XULOSA (ЗАКЛЮЧЕНИЕ / CONCLUSION)

Xulosa sifatida aytish mumkinki, Mahmud Zamaxshariy ilmning turli sohalarida samarali ijod qilib, arab tili grammatikasi va Qur’oni karim tafsiri borasida beqiyos asarlarni meros qoldirdi. “Nukatu-l-e’rob” va “Al-Kashshof” asarlari ana shunday asarlarining gultoji desak xato bo‘lmaydi.

“Al-Kashshof” Qur’on tafsiri bo‘lib oyatlarning ma’nosi, balog‘ati, mantiqiy izohlarini keng qamrovda bayon qiladi. “Nukatu-l-erob” esa tilshunoslikka oid asar bo‘lib, Qur’ondagi ayrim oyatlarni grammatik tahlil qiladi. Asarning har ikkalasi Qur’on ilmi va arab tili uchun muhim manba hisoblansada, biri tafsirga ikkinchisi grammatikaga urg‘u beradi.

ADABIYOTLAR VA MANBALAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi fuqorolarining vijdon erkinligini ta’minlash va diniy sohadagi davlat siyosati Konsepsiyasi. 2025 yil 25 fevraldagi O‘RQ 1037-sonli Qonuniga ilova. – B.1.

2. Z. Islomov. Muqaddimatu-l-adab. – Toshkent: TIU, 2002. — B.3.

3. Ad-dirasatu-n-nahviyya va-l-lug‘aviyya i’nda-z-Zamaxshariy. Dok. Fozil Solih Samroiyy. – Bag‘dod: Al-irshod, 1981. -B.14

4. Z. Islomov. Mahmud Zamaxshariyning “Kashshof” asarining manbaviy muhiti. Islom tafakkuri jurnali. 2024 yil 3-son

5. “Nukatu-l-e’rob fi g‘orib e’rob fi-l-Qur’onil Karim”. Dok. Muhammad Abulfatuh Ash-sharif – Qohira: “Doru-l-Ma’orif” nashriyoti –B. 32
6. Az-Zamaxshariy. Siyratuhu-asruhu-mazhabuhu-n-nahviy. Dok. Kamol Jabriy Abhariy. –Amman: Daru-l-janan. -B.113-114.